



Representation of personal deixis in English and Uzbek agricultural texts

Munisa BOZOROVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2023

Received in revised form

10 December 2023

Accepted 25 January 2024

Available online

25 March 2024

Keywords:

deixis,
personal deixis,
scientific text,
personal pronouns,
anaphora,
cataphora,
scientific style.

ABSTRACT

This article analyzes the use of personal deixis in scientific texts on agriculture in English and Uzbek. First, the opinions of linguists on the phenomenon of deixis, in particular personal deixis, are presented, and then materials and methods of research are given. The results of the study and their discussion highlight the role and functions of the use of personal deixis in a scientific text. In the conclusion, the results obtained from the study and the opinions of scientists are summarized in the form of a general conclusion.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1-pp148-156>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International

(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek qishloq xo'jaligiga oid matnlarida shaxs deysksisining ifodalanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

deysksis,
shaxs deysksisi,
ilmiy matn,
kishilik olmoshlari,
anafora,
katafora,
ilmiy uslub.

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlarda shaxs deysksisining qo'llanilish holatlarini ko'rib chiqadi. Dastlab deysksis hodisasi xususan, shaxs deysksisi borasida tilshunos olimlarning bildirgan fikr-mulohazalari keltirib, so'ngra tadqiqot metodlari va usullari berilgan. Shaxs deysksisining ilmiy matndagi qo'llanilish o'rni va vazifalari tadqiqot natijalari va ularning muhokamasida keltirib o'tilgan. Xulosa qismida esa tadqiqotdan olingan natijalar va olimlarning fikrlari jamlanib, umumiy xulosa shaklida bayon etilgan.

¹ Doctoral student, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Репрезентация личного дейксиса в английских и узбекских сельскохозяйственных текстах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

дейксис,
личный дейксис,
научный текст,
личные местоимения,
анафора,
катафора,
научный стиль.

В данной статье анализируется применение личного дейксиса в научных текстах по сельскому хозяйству на английском и узбекском языках. Сначала представлены взгляды лингвистов на феномен дейксиса, в частности, на личный дейксис, после чего описываются методы проведения исследования. В разделе результатов и их обсуждения выделены роль и функции личного дейксиса в научной литературе. Заключительная часть суммирует полученные данные и представляет обобщенные выводы ученых.

KIRISH

“Deyksis” atamasi – yunoncha “ko’rsatuvchi” degan ma’noni bildiruvchi so’zdan kelib chiqqan bo’lib, hozirda tilshunoslikda shaxs va ko’rsatish olmoshlarining, zamon va boshqa turli grammatik va leksik xususiyatlarning vazifasini bildirishda ishlatiladi. [Layonz 1977:636]

Deyksis hodisasining nutq vaziyati bilan bog’liq ekanligini boshqa bir qancha tilshunoslar ham ta’kidlab, deyksis atamasiga quyidagicha ta’rif beradilar: Deykis atamasi vaziyat va / yoki nutq kontekstining elementlarini, shu jumladan, nutq ishtirokchilari va hozirgi nutq hodisasining vaqti hamda joyini ko’rsatish uchun ishlatiladigan lingvistik iboralar sinfini anglatadi [Byuller 1934; Frei 1944; Fillmor 1982, 1997; Levinson 1983, 2004].

Deyksis hodisasi nutqda namoyon bo’lar ekan, nutq harakatining kimga qaratilganligi bo’yicha nemis tilshunosi Karl Brugman deyksisni uch turga men -sen – u olmoshlarini ajratadi. Bu morfologik tasnifni Karl Byuller keyinchalik kengaytiradi va shaxs, zamon, makon deyksislariga ajratish mumkinligini aytib o’tadi.

Deyksis maydoni markazida shaxs turadi. Nutqiy muloqot jarayonida bajarayotgan rolga nisbatan shaxs deyksisining tarkibi aniqlanadi. Birinchi shaxs so’zlovchining o’rniga ishora, “o’zini ko’rsatishi, eslatishi”ning lisoniy ifodasidir, ikkinchi shaxs – tinglovchi yoki adresantning lisoniy belgilanishi hamda uchinchi shaxs muloqotning bevosita ishtirokchisi bo’lmagan shaxsga ishoradir. Muloqot ko’chishiga qo’shgan hissasiga nisbatan farqlanayotgan ushbu tizim olmoshlar guruhlarida o’z aksini topadi [Sh. Safarov 2008:194].

Mazkur maqolada deyksisning katta guruhidan biri bo’lmish shaxs deyksisining ilmiy matnda ifodalanishi to’g’risida ma’lumot beradi. Maqolada ingliz va o’zbek tillaridagi qishloq xo’jaligiga oid ilmiy matnlarda shaxs deyksisining ifodalanish vositalari, har bir tilga xos bo’lgan xususiyatlar ko’rsatiladi. Shaxs deyksisining ilmiy matnda ifodalanishida o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarni ko’rsatish, o’gzaki nutqqa xos bo’lgan biroq yozma ilmiy nutqda foydalanilmaydigan deytik birliklarni misollar yordamida tahlil qilish asosiy maqsadlardan biridir. Ingliz tili va o’zbek tilidagi mavjud deytik birliklarning o’xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish ham maqolada o’z o’rniga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tilshunoslikda deysis hodisasi ko'plab tilshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Deyksisni turlarga ajratishda ham dastlab shaxs deyksisi uch turga ajratilgan bo'lib, keyinchalik boshqa tilshunoslar tomonidan olib borilgan izlanishlarda ham shaxs deyksisi deysis birliklar ichida ajralib turadi. Shaxs deyksisni ifodalashda egosentrik nazariyani bergan faylasuflardan biri Bertrand Russell "men", "bu", "shu yerda", "hozir" so'zlarini asosiy egosentrik so'zlar sifatida ta'riflab, ularning ma'nosi zamon va makon o'zgarishi bilan bog'liq holda o'zgarib turishini e'tirof qilgan "shu yerda" so'zi, "men"ning har bir harakati natijasida joy oladigan alohida o'rnini belgilaydi; "men" uni talaffuz qilayotgan har qanday shaxsni bildiradi" [Russel 1948: 113]. O'z ustoziga ergashgan L. Vitgenshteynning ta'rifi ham shunga mos: "'Men" – biror bir shaxsning nomlanishi emas, "shu yerda" – ma'lum bir joyni bildirmaydi, "bu" – nom emas" [Vitgenshteyn 1994, Ch.I: 207]. Shuning bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilar deyksisning egosentrik xususiyatini to'lig'icha e'tirof etishga jur'at etmaydilar. V. Shmidt, G. Raux, I.A. Sternin va boshqalar deysis maydon markazini "sen/siz", ya'ni adresat egallashi mumkinligini aytishadi. [Safarov 2008:185]

So'zlovchilar almashganda, deysis tizimdagi mavjud bo'lgan deysis markaz bir ishtirokchidan boshqa ishtirokchiga o'tadi deya fikr bildirgan Levinson esa shaxs deyksisida asosiy e'tiborni grammatikalashtirishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, biz ehtimoliy ishtirokchi rollarining mustaqil pragmatik strukturasini ishlab chiqishimiz kerak, shunda biz bu rollar tillar bo'yicha qanday va qay darajada grammatiklashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday so'zlovchi yoki vakil so'zning manbasidan, qabul qiluvchining maqsaddan, tinglovchilar yoki kuzatuvchilar esa adresat yoki maqsaddan farq qilishi va ba'zan bunday farqlar grammatik jihatdan aniq bo'lmagan holda ifodalanishini hisobga olishi kerak [Levinson 2004:72].

Layonz deyksis hodisasini shaxs deyksisi asosiy o'rin egallaydigan turlaridan biri ekanligini aytib o'tgan holda, so'zlashuv aktida ishtirok etish orqali yaratilgan va qo'llab-quvvatlanadigan makon-zamon kontekstiga nisbatan aytilayotgan shaxslar, obyektlar, hodisalar, jarayonlar va faoliyatlarning joylashuvi va identifikatsiyasi, ya'ni bitta ma'ruzachi va kamida bitta qabul qiluvchi tushuniladi deb aytib, so'zlovchi va adresatni kiritadi. [Layonz 1977: 638]

Shaxsiy deysisda lingvistik ibora kontekstda hali lingvistik jihatdan ajratib olinmagan ma'lum bir shaxsni ta'kidlashda ishlatiladi. [B.J.Birner 2013: 116]

Benvenistning fikricha "Men" olmoshi ma'nosini faqatgina ma'lum bir nutqiy harakat ijrosiga [locution] nisbatan aniqlash mumkin va bu nutqiy harakat doimo yagona, alohida bo'lib qoladi, takrorlanmaydi. Har bir nutqiy harakat alohida obyekt [voqelikdagi hodisa, predmet] bilan bog'liq bo'lganligi sababli, "men" olmoshining referenti ham o'zgarib turadi. Qisqasi, "men" shakli lisoniy nuqtai nazardan faqatgina bajarilayotgan, ijro etilayotgan nutqiy harakatda mavjuddir [Benvenist 1974: 286].

Yul o'zining "Pragmatika" asarida shaxs deyksisiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri inklyuzivlik va eksklyuzivlikni "Ketaylik" [ba'zi do'stlarga] va "Ketdik" [ma'ruzachi va do'stlarni qo'lga olgan kishiga] aytish o'rtasidagi farqda aytib o'tgan bo'lsa [Yule 1996: 10], Layonz ham bu g'oyani kerakli ekanligi va ba'zi tillar uchun bu xususiyat muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. [Layonz 1977:639].

Nofaol ishtirokchi va kuzatuvchi G.G.Pochepsovning e'tiroficha, "'men" va "sen"ga qarama-qarshi turadigan "u"dir. Bundan tashqari, bu shaxs [u-Sh.S.] "men" va "sen"ning muloqoti jarayonida "shu yerda" bo'lib, shu yo'sinda kommunikantlar nutqiy faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazadi" [Pochepsov 1987: 37].

Bilamizki, birinchi va ikkinchi shaxslar bevosita muloqat ishtirokchilaridir va “men”: “sen” guruhlaridagi olmoshlar “kommunikativ shaxs”larni ifodalaydi. Uchinchi shaxs olmoshlari esa bunday xususiyatga ega emas, ularning referenti – muloqotning bevosita ishtirokchilari bo’lmagan “nokommunikativ shaxs”lardir. Uchinchi shaxsning kommunikativ mohiyati yetarli darajada ekanligini e’tiborga olib, “u” olmoshini shaxs deyksisini ifodalovchi lisoniy vositalar qatoriga qo’shish mumkin. [Safarov 2008:196].

A.A.Ufimseva uchinchi shaxs olmoshlarining bunday semantik xususiyatini hisobga olib, ular bajaradigan asosiy vazifa deyktik mazmun ifodasi bo’lmasdan, balki o’rin almashtirish [olish] deb hisoblaydi [Ufimseva 1974:176]. Deyktik vositalar qatoriga kiruvchi so’zlarning leksik ma’nosida u yoki bu turdagi referentga ishora mavjudligini isbotlashga harakat qilgan Ye.V. Paduchevaning ta’rificha, “olmoshlar – ma’nosida nutqiy harakatga havola yoki nutqiy tuzilmaning borliq bilan munosabatiga, turiga ishora mavjud bo’lgan so’zlardir” [Paducheva 1988: 11].

Nutqda muayyan til birliklarining deyktik xususiyati asosida shaxsga ishora qilinishi shaxs deyksisini yuzaga keltiradi. Shaxs deyksisini hosil qiluvchi birliklar nutqda qo’llanar ekan, kontekst orqali ayni shaxslarning kim ekanligiga ishora qilib turadi. Shu bois, ularni ishora orqali shaxs tushunchasiga aniqlik kirituvchi deyktik birliklar sifatida tavsiflash mumkin. [Haydarova 2020:17].

O’zbek tilshunosligida deyksis hodisasini bir qator tilshunoslarning ilmiy izlanishlarida uchratishimiz mumkin. Xususan, Sh.S.Safarov “Pragmalingvistika” asarida deyksis hodisasini pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilib berilgan bo’lsa, A.Shermatov ilmiy texnik matnlarda deyksis hodisasining namoyon bo’lishini, G.Boltakulova esa temporal deyksisning o’zbek tilida ifodalanishi to’g’risida, R. Davlatova o’zbek tilidagi deyktik birliklar haqida ilmiy izlanishlarni olib borgan.

Ushbu tadqiqotni o’tkazish uchun tadqiqotchi qiyosiy metoddan foydalangan. Ingliz tilidagi qishloq xo’jaligiga oid matnlar *Crop Ecology, Essentials of plant breeding* kabi adabiyotlar va ilmiy-ommabop jurnallardan va konferensiya materiallaridan iborat. O’zbek tilidagi misollar o’simlikshunoslik, qishloq xo’jalik melioratsiyasi, sohaga oid ilmiy jurnallar va xalqaro konferensiya materiallaridan tashkil topgan.

Shu bilan birga, ma’lumotlarni tahlil qilishda tadqiqotchi bir necha bosqichlarni amalga oshirdi. Birinchidan, har bir matn deyksis qoidalari sifatida sinchkovlik bilan tahlil qilindi. Keyin dominant paydo bo’lgan shaxs deyksisning tasnifi turlariga oid misollar topildi va ularning dominant bo’lishi mumkin bo’lgan sabablari tahlil qilindi. So’ngida tadqiqotchi quyidagi muhokama va natijalarni tavsiflaydi.

NATIJALAR

To’plangan ma’lumotlarga ko’ra quyidagi natijalar olindi. Ingliz va o’zbek tillaridagi qishloq xo’jaligiga oid matnlarda shaxs deyksis hodisasi ko’p qo’llaniladi. Birinchi shaxs deyksisi ingliz tilida I, we (1), (2) shaklida qo’llaniladi. O’zbek va ingliz tillaridagi ilmiy matnlarda esa biz shaklida birinchi shaxsni – so’zlovchini berish inklyuziv va ekslyuziv shaklda(3), (4) ham namoyon bo’ladi. Birinchi shaxs deyksisi kishilik olmoshlaridan tashqari ingliz tilida egalik olmoshlari orqali periferiyali deyktik munosabatga (7), (8) kirisha oladi. O’zbek tili esa grammatikalashtirish hodisasi tufayli shaxsni boshqa grammatik hodisalar: shaxs -son va egalik qo’shimchalari yordamida adresatni ko’rsatish (16), (17), (18) imkoniyatiga ega. Ikkinchi shaxs ya’ni tinglovchini berish ilmiy matnga xos xususiyat bo’lmaganligi uchun bu holat juda kam kuzatildi va ingliz va o’zbek tillaridagi matnlarda ikkinchi shaxs deyktik birlik (21), (22) shaklida berilgan. Uchinchi

shaxsni bildirish ingliz tilida ham o'zbek tilida ham ko'plab uchraydi (11), (12), (13) va bu holatda uchinchi shaxs olmoshi anaforik (14), (15) yoki kataforik (23) holatda matnda shaxsga ishora qilib o'tadi. To'plangan ma'lumotlarga ko'ra quyidagi natijalar olindi. Ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid matnlarda shaxs deyksis hodisasi ko'p qo'llaniladi. Birinchi shaxs deyksisi ingliz tilida *I, we* shaklida qo'llaniladi. O'zbek tilidagi ilmiy matnlarda esa *biz* shaklida birinchi shaxsni – so'zlovchini berish inklyuziv va ekslyuziv shaklda ham namoyon bo'ladi. Ikkinchi shaxs, ya'ni tinglovchini berish ilmiy matnga xos xususiyat bo'lmaganligi uchun bu holat juda kam kuzatildi va ingliz tilidagi matnlarda ikkinchi shaxs deyktik birlik shaklida berilgan. Uchinchi shaxsni bildirish ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham ko'plab uchraydi va bu holatda uchinchi shaxs olmoshi anaforik yoki kataforik holatda matnda shaxsga ishora qilib o'tadi.

MUHOKAMA

Shaxs deysksisi hodisasini tahlil qilishda kishilik olmoshlar haqida gapirib o'tmaslikning iloji yo'qdir. Betty J Birner ayni shu haqida gapirib, kishilik olmoshlari bevosita shaxslarni anglatadi, ammo kontekst orqali ayni shaxsning kim ekanligiga ishora qilib turadi. Shu bois, kishilik olmoshlarini ishora orqali shaxs tushunchasiga aniqlik kirituvchi deyktik birliklar sifatida tavsiflash mumkin bo'ladi, deb ta'kidlaydi [Betty J. Birner 2013:116].

Shaxsga ishora qiluvchi birliklarni so'zlovchi shaxsi – “men”siz tasavvur etib bo'lmaydi. So'zlovchi muloqot jarayonida markaziy o'rinda turadi. Boshqa nutq ishtirokchilarining mavqei ayni shu nutq egasi, ya'ni so'zlovchiga nisbatan belgilanadi. “So'zlovchi shaxsga tobelik” boshqa kishilik olmoshlarining zaruriy va markaziy belgisi sanaladi. [Davlatova 2020:18].

Qishloq xo'jaligiga oid matnlarda ham kishilik olmoshlari orqali shaxs deyksisni ifodalash asosiy holatlardan biri hisoblanadi:

(1) *Tadqiqot maqsadiga erishish uchun **biz** 2016–2018-yillarda Samarqand viloyati Bulung'ur tumanining “Nurbaev Aliqul Nurbaevich bog'i” fermer xo'jaligining sug'orish eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlari sharoitida O'zbekiston sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida yaratilgan soyaning o'rtapishar “Do'stlik”, “O'zbek-2” “O'zbek-6” navlarini ekish me'yorlarining tuproq unumdorligiga va ularning hosildorligiga ta'siri o'rganildi. (Xalqaro agrobiologiya va veterinariya meditsinasi jurnali maxsus soni, Samarqand 2022:744).*

(2) ***We** can also evaluate agricultural systems at watershed, regional, national, or global u aim with regard to impact on food security and ecosystem services that include water and an quality, and biodiversity (David J. Konnor Crop ecology UK. – Cambridge University press 2011:15).*

Yuqoridagi berilgan misollarda *biz* kishilik olmoshi deyktik maydon markazida turgan shaxs so'zlovchi sifatida matnda namoyon bo'lgan bo'lsa, keying misolda *we* ingliz tilidagi matnda deyktik markazda o'z o'rnini egallab turibdi. Ilmiy matnga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu muallifning o'zini yakka holda men deya e'tirof etmasligidir. Quyidagi ingliz va o'zbek tillarida keltirilgan misolda shuni ko'rishimiz mumkinki, bu yerda berilgan *we- biz* olmoshi ko'plikni bildirmayapti, balki muallifning kamtarligini ko'rsatib bergan:

(3) *In this chapter, **we** introduce ideas about the nature, objectives, and management of farming to provide a foundation for detailed analyses of crop performance in agricultural systems. **We** also present the guiding principles upon which this book is constructed. (David J. Konnor Crop ecology UK. – Cambridge University press 2011:13)*

(4) *Biz Samarqand viloyatining sug'orish eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlari sharoitida yetishtirilgan kuzgi bug'doy doni tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdoriga tuproqqa ishlov berish usullari va fosforli o'g'itlar meyorlarining ta'sirini aniqladik (Xalqaro agrobiologiya va veterinariya meditsinasi jurnali maxsus soni Samarqand 2022: 564).*

Olmoshlar esa, o'z navbatida, uch shaxsdan tashqari, ko'plik, rod kabi kategorial belgilar asosida o'zaro farqqa ega bo'ladi. Ammo ko'plik son belgisiga ega bo'lgan olmosh har doim ham birlik sondagi olmoshga to'g'ridan-to'g'ri mos kelavermaydi. Jumladan, "biz" har qanday kontekstda ham so'zlovchilarning soni ko'p ekanligini anglatmaydi. Shuning uchun ham "biz" olmoshi qo'llanilgan ayrim holatlarda uzatilayotgan axborot mazmunini va ko'plik soni qaysi ma'noda voqelanayotganligini aniqlash tinglovchining ixtiyorida.

(5) *When most farms within a region are organized in a similar way, we can apply a descriptive phrase that characterizes regional farming practices. Crop ecology (David J. Konnor Crop ecology UK. – Cambridge University press 2011:15).*

(6) *Biz yuqorida aytilgan hisob-kitob ishlarini bajarib, 2-jadvalni hosil qilamiz. (O'zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 2022:109).*

Berilgan misoldagi *we*, *biz* olmoshlari matnda birlik yoki ko'plikni ifoda etayotganligini anglash o'quvchiga qiyinchilik tug'diradi. Mazkur holatlarda ba'zan ilmiy ishning bajarilishida boshqa olimlar fikrlarining hissasi bo'lganligi sabab ko'plik shaklda beriladi deb hisoblansa, ba'zida ilmiy uslubning o'ziga xos bir ko'rinishda namyon bo'lishi deb hisoblanadi.

Shaxs deyksisini ifodalashda nafaqat kishilik olmoshlari balki egalik olmoshlari ham shaxs deyksisi ma'nosini ifodalashi mumkin. Ingliz tilidagi qishloq xo'jaligiga oid matnlarda *our* olmoshi qo'llanilib, inklyuziv ko'plik shaklini bera olishi bilan ahamiyatlidir:

(7) *In our example lines A and B differed by 19 % in their mean severity of infection (Rex Bernardo Essentials of plant breeding. Woodbury.: Stemma Press- 2014:100).*

(8) *Plants provide all energy for maintenance, growth, reproduction, and locomotion of every living organism on our planet. (David J. Konnor Crop ecology UK. – Cambridge University press 2011:33).*

O'zbek tilidagi misollarda esa o'zgarishlarda katta farq sezilmaydi, buning sababi esa kishilik olmoshlarining shakllari o'zgarishi faqatgina suffiks qo'shilishi bilan bog'liq bo'lganligidadir. Quyida berilgan misollarda bizning olmoshi so'zlovchini belgilab berib, uni nutqiy harakat markaziga olib keladi:

(9) *Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish innovatsion rivojlanishning muhim omili hisoblanadi (O'zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari Respublika ilmiy- amaliy konferensiya to'plami 2022:28)*

(10) *Bizning tadqiqot natijalarimiz bo'yicha behi mevasi nisbatan oltingugurtga boy ekanligi bilan ham xarakterlidir. (O'zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami 2022:503)*

J. Layonz uchinchi shaxsga ta'rif berib, uchinchi shaxs birinchi yoki ikkinchi shaxsga o'xshamaydi, chunki u nutq hodisasida biron bir aniq ishtirokchi-rolga mos kelmaydi deb ta'kidlaydi (Lyons, 1977: 638). Xususan, ingliz tilida uchinchi shaxs

olmoshlarida rod kategoriyasining aspekti *he, she* tarzida ko'zga tashlansa, o'zbek tilida uchinchi shaxs olmoshlari bunday xususiyatga ega emas. Bu turdagi olmoshlar ilmiy matnlarda ko'p holatlarda anaforik ko'satuvchi sifatida ishtirok etadi.

(11) *Johannsen* observed that the Princess cultivar in common bean had seeds that differed in their weight. *He* then developed 19 lines by saving progeny from each of 19 single seeds from the original seed lot (Rex Bernardo Essentials of plant breeding. Woodbury.: Stemma Press- 2014:78).

(12) Ilmiy jarayonga 20-asrning 80-yillarida *M. Porter* tomonidan "klaster" atamasi iqtisodiy kategoriya sifatida kiritilgan. *Uning* fikricha, klaster – ma'lum sohada faoliyat ko'rsatayotgan kompaniya va institutlarning geografik jihatdan tarmoqlararo birlashuvidir. (O'zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari Respublika ilmiy- amaliy konferensiya to'plami 2022:69).

Ba'zi holatlarda uchinchi shaxs olmoshining birlikda emas ko'plik shaklida berilishi uchrab turadi, bu holatda ilmiy matnda berilgan ko'plikdagi uchinchi shaxs ilmiy faoliyatga yoki yangilikka qadar qanday hissa qo'shganligi yoki bildirgan xulosalarini aniqlash maqsadida beriladi va egalik olmoshi shaklida ham shaxs deysisi ifodalanadi:

(13) *Ho* says *he* and *his* co- workers hope to publish *their* findings rapidly online, and *they* will present data from case at a large U.S. AIDS meeting in Boston this week (Science vol307: 1814).

(14) O'zbekistonda tuproq zamburug'larini o'rganish borasida *Vuxrer, Abdujalolova (1977), Ibodov va boshqalar (1992), Sheraliev (1980), Zuparov (1984), Mamiev (1997)*lar tadqiqotlar olib borishgan. *Ularning* ishlarida asosan buz yerlar mintaqasi cho'l zonasi tuproqlari va ayrim tog' tuproqlarida zamburug'larning miqdoriy va sifatiy taqsimlanishi masalalari yoritilgan. (Iqlim o'zgarishi sharoitida yer resurslarini barqaror boshqarish Respublika ilmiy-amaliy seminar 2017:158).

(15) Bu borada o'sha vaqtda Moskva qishloq xo'jalik institutida ishlagan akademik *V.V. Vilyams va B.B. Polinovni* ishlari katta bo'ldi, *ular* ishtirokida "Tuproq melioratsiyasi" faniga asos solindi (S.Abdullayev. Tuproq melioratsiyasi T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2011:9)

O'zbek tilidagi qishloq xo'jaligiga oid matnlarda shaxs deysisni kishilik olmoshlarisiz ham ifoda etish usullari mavjud bo'lib, bular sirasiga grammatikalashtirishni kiritishimiz mumkin. Fe'ning shaxs-son qo'shimchasi, egalik qo'shimchalari yordamida so'zlovchini ko'rsatib berish mumkin:

(16) *Tajribalarimiz* natijalarida yumshoq bug'doyning Farg'oma navi o'sishi, rivojlanishi uchun tuproq namligi bilan maqbul miqdorda taminlanishi ularning tuplanish darajasiga, hosil strukturasi, don hosili va uning sifatiga ijobiy tasir ko'rsatishi aniqlandi (O'zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari Respublika ilmiy- amaliy konferensiya to'plami 2022:219).

(17) *O'z tajribalarimizda* no'xatning Yulduz, Uzbekistanskiy – 32 va Umid navlarini har xil (25-fevral, 5-mart, 15-mart, 25-mart, 5-aprel, 15-aprel) muddatlarda va 60x6 ekish sxemasida ekilganda ekin ildizining biomassasini tuproq gorizontlari bo'yicha tarqalishini *o'rgandik* (Xalqaro agrobiologiya va veterinariya meditsinasi jurnali maxsus soni. Samarqand. 2022:899).

(18) *Bizningcha*, yerdan foydalanish tizimi tushunchasiga berilgan mazkur ta'rifda ayrim qarama-qarshi talqinlar mavjud, u hozirgi zamon yerdan foydalanish mazmunining barcha jihatlarini qamrab olmagan, ya'ni yerdan foydalanish tizimi muayyan munosabatlar ta'sirida bo'ladi. (Iqlim o'zgarishi sharoitida yer resurslarini barqaror boshqarish Respublika ilmiy-amaliy seminar 2017:118).

Yuqoridagi misoldagi bizningcha soʻzi gapda kirish soʻz vazifasida kelgan boʻlsa-da, muallifning fikri soʻzlovchining qatʼiy pozitsiyasini belgilab bergan. Bu yedagi misolda boshqa koʻrsatkich keltirilmagan, biroq birgina soʻzning oʻzi matndagi fikrga munosabat hamda muallif fikrining bayoniga mos tusha olgan.

Ingliz tilidagi bu misolda kishilik olmoshining birinchi shaxsda kelishining bir emas, bir necha shaklda kela olishini koʻramiz. Dastlab egalik olmoshlari vositasida berilgan shaxs deyksisi oʻrni keyingi oʻrinlarda kishilik olmoshi bilan berilgan. Keyingi misolda esa shaxs deyksisi dastlab anaforik holatda kelgan boʻlsa, soʻngra uning deytik birlikka aylantirilgan shakli *we* kishilik olmoshi bilan berilgan:

(19) *Positioning **our** ENTEC-line as a modern fertilizer concept **we** are offering an attractive and complete product range adapted to the different market segments* (New AG international 2002 December:24).

(20) *There are multiple research lines to achieve such **aim** and **ours** consists in developing what **we** call Phyto- protectants a group of natural substances aimed to increase plant protection against pests and diseases.* (New AG international June 2007:27).

Ilmiy matnda muallif uchun shu yerdagi shaxs tinglovchi- adresant sen/siz you shakli kamdam- kam holatlardagina ishlatiladi, berilgan misolda esa muallif birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlarini deytik markazga olib kelib koʻrsatmoqda va you/siz deb berilgan ikkinchi shaxs aslida muloqot maydonidagi uchinchi shaxsga qaratilgani bilan ogʻzaki matndan farqlidir:

(21) *I think **you** have to tell people there may be a problem here* (Science Volume 307:1183).

Ingliz tilidagi ilmiy matnda uchinchi shaxs olmoshlarining kataforik holatda berilishi koʻp uchraydi, bunda berilgan antecedentga urgʻuni koʻproq qaratish va oʻquvchining eʼtiborini matn mazmuniga tortish ham nazarda tutilgan:

(22) *Among **his** many other accomplishments, **professor Zhang** has served as project leader for two large Sino – German research projects in the North China- Plain concerned with sustainable resource use in intensified crop production. 10.* (New AG international June 2007: 24).

XULOSA

Qishloq xoʻjaligiga oid ilmiy matnlarda shaxs deyksisning qoʻllanilishini ingliz va oʻzbek tilidagi matnlar misolida koʻrib chiqib quyidagi xulosaga kelindi. Shaxs deyksisi qishloq xoʻjaligi matnlarida ingliz tilida ham oʻzbek tilida ham koʻplab uchraydi, ularning qoʻllanilishida oʻxshashliklar bilan bir qatorda farqli jihatlarga ham ega. Birinchi shaxs-soʻzlovchini ingliz tilida *I, we* olmoshlari bilan ifodalanadi. Oʻzbek tilida esa biz olmoshi men oʻrnini egallab birlik va koʻplik shaklida ham ifodalanadi, buning sabablaridan biri, ilmiy uslubga xos boʻlgan muallifni oʻzini men deya taʼkidlashi gʻaliz boʻlganligi uchun deb ifodalanadi. Ingliz tilida kishilik olmoshidan tashqari, shaxs deyksisi egalik olmoshlari vositasida ham berilishi mumkin, bu holat baʼzida faqatgina egalik olmoshi bilan koʻrsatilsa, baʼzida egalik olmoshi anaforik holatda kelib, kishilik olmoshi reprezentativ funksiyani bajargan holda shaxs deyksisini ifodalaydi. Ikkinchi shaxs-tinglovchini ilmiy matnda berish holatini faqatgina ingliz tili misolida koʻrdik. Grammatikalashtirish hodisasi tufayli oʻzbek tilidagi matnlarda shaxs deyksisini shaxs-son, egalik qoʻshimchalari vositasida ham berish mumkin. Shaxs deyksisida muloqot maydonida mavjud boʻlmagan ishtirokchini ifodalashda ingliz tilida *he, they* olmoshlari, oʻzbek tilida esa *u, ular* olmoshlari qoʻllanilib periferiyali deytik munosabatga misol boʻladi va ular

ko'plab holatlarda anaforik holatda kelib, boshqa muallifni, ularning tadqiqot va fiklarini eslatadi. Ingliz tilidagi ilmiy matnlarda uchinchi shaxsni kataforik holatda berilishi ham uchraydi bunda muallif o'quvchi e'tiborini avval elementga so'ngra shaxsga qaratishni maqsad qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Апресян Ю.Д. (1995) Дейксис в лексике и грамматике \ \ Избранные труды. – М: Языки русской культуры– Т.2. Интегральное описание языка и системная лексикография. – С. 629-650.
2. Бенвенист Э. (1974) -Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 447 с.
3. Бурлакова В.В. (1988) – Дейктические категории в тексте // Предложение и текст: семантика, прагматика и синтаксис. – Л.: Изд.- во Лгу, С.250.
4. Бюлер, К. (2000). Теория языка. Репрезентативная функция языка М.: Прогресс, – 528 с.
5. Давлатова Р.Х. (2020) Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. Фанл. Докт (DcS)...автореф. Тошкент: Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, – 33б.
6. Падучева Е.В. (1985) Высказывание и его соотнесенность с действительностью (референциальные аспекты семантики местоимений). М.: Наука, -271с.
7. Рахимов С. (1986) Дейктические маркеры локальности в современном узбекском языке. № 2. – С 86-91.
8. Савельева Е.Б. (2012) Дейксис и анафора: общее и специфическое // Вестник ИГЛУ. М., № 2.- С.181-183.
9. Сафаров Ш. (2008) Прагмалингвистика. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти. – 285б.
10. Уфимцева А.А. (1977) Типы словесных знаков. М.: Наука,. – 250с.
11. Шерматов А.А. (2008) Инглиз илмий – техник матнда дейксиснинг ифодаланиши: Филол. Фанл. Номз....автореф. – Тошкент: ЎЗМУ,. – 22б.
12. Шерматов А.А (2012) Илмий матнларда биринчи шахснинг қўлланишига доир айрим мулоҳазалар// Хорижий филология. Самарқанд,. №4.- Б 55-58.
13. А.Шомақсудов, И.Расулов, Р.Қўнғуров, Ҳ.Рустамов.(1983) Ўзбек тили стилистикаси (ўқув қўлланма) – Тошкент,Ўқитувчи – 248б.
14. Betty J. Birner (2013) Introduction to pragmatics Chichester, UK: Blackwell Publishing 342p.
15. Brown, Gillian – Yule, George. (1983). Discourse Analysis. Cambridge University Press.
16. Bühler, K. (1990). Theory of Language: The representational function of language. Amsterdam: John Benjamins.
17. Ehlich K. Scientific Texts and Deictic Structures // The Pragmatics and Comprehension of Written texts. – Berlin.: Mouton de Gruyter, 1992. – P.208.
18. Fillmore, C.J. (1997). Lectures on Deixis. Stanford, Calif.: CSLI Publications.
19. Levinson, S. C. (2004). Deixis. In L.R. Horn & G. Ward (eds.), The Handbook of Pragmatics. Malden, MA, USA/Oxford, UK/Carlton, Australia: Blackwell Publishing, 97-121.
20. Lyons, J. (1977). Ch. 15: Deixis, space and time. In Semantics, Vol 2. Cambridge: Cambridge University Press, 636-724.
21. Nunberg, Geoffrey 1998. Indexicality and deixis. In: A. Kasher (ed.). Pragmatics. Critical Concepts. London: Routledge, 145–184.
22. Yule G. (1996) Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press., – 138p.